
“YORQINOY” DRAMASINING BADIY XUSUSIYATLARI**Abdullayeva Rufina Usman qizi***Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**o‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Jadid vakillaridan biri bo‘lmish Cho‘lpon dramaturgiya sohasida samarali ijod etgan. Uning 1920- yilda yozilgan “Yorqinoy” dramasi pyesalar orasida eng baquvvati va mukammalidir. Ushbu maqolada “Yorqinoy” dramasi haqida o‘z fikr-mulohazalarimizni berishga harakat qildik.*

Kalit so‘zlar: *drama, Yorqinoy, pyesa, obraz, dialog, monolog, dramatik lavha, voqea, xalq qahramonlik dostonlari.*

Abstract. *Cholpon, one of the representatives of Jadid, worked effectively in the field of dramaturgy. His drama “Yorqinoy” written in 1920 is the most energetic and perfect among the plays. In this article, we tried to give our opinions about the drama "Yorqinoy".*

Key words: *drama, Yorqinoy, play, image, dialogue, monologue, dramatic scene, story, folk epics.*

Cho‘lpon o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biridir. U XX asr boshidagi o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri bo‘lib, uning asarlarida dramatism muhim o‘rin tutadi. Cho‘lponning dramaturgik asarlarida jamiyatning ijtimoiy va madaniy muammolari, inson ruhiyati, sevgi va fojia kabi mavzular keng yoritilgan. U o‘z asarlarida xalq hayoti va uning murakkabliklarini tasvirlab, o‘quvchilarni chuqur o‘ylashga majbur qiladi. Cho‘lponning dramatik asarlarida realizm va naturalizm uslublari keng qo‘llaniladi. U jamiyatdagi haqiqatlarni ochiq-oydin ko‘rsatishga intiladi, hayotning quyuq va yorqin tomonlarini birdek aks ettiradi.

Jadidlar tomonidan yozilgan dramalarda fikr, g‘oya birinchi o‘rinda turgani uchun badiiylikka yetarlicha ahamiyat berilmagan. Cho‘lpon bu kamchilikni to‘ldirgan holda, to‘laqonli drama yaratish uchun badiiylikni kuchaytirishga uringan. Buning uchun folklarga murojaat qilarkan, undagi romantik unsurdan badiiylikni oshirish yo‘lida foydalanishga intilgan. Shu tariqa, “Yorqinoy”da hissiyotga boy dramatik holatlar yaratgan. Dramada badiiylikni kuchaytirishning turli usullaridan foydalanish mumkinligiga u jahon adabiyoti, xususan, dramalari bilan tanishgandan so‘nggina to‘la ishonch hosil qilgan.

“Yorqinoy” – Cho‘lponning eng mashhur dramalaridan biri bo‘lib, uning ijodida alohida ajralib turadi. Bu asar folklor materiallari asosida yaratilganini Cho‘lponning quyidagi so‘zlari orqali bilib olish mumkin: “Totli va boy tili bilan ertak (cho‘pchak) aytib berib, shu asarning yozilishiga sabab bo‘lgan kampir onaga hurmat bilan bag‘ishlayman”. Bu

so‘zlardan ma’lum bo‘lishicha, “Yorqinoy” dramasi yozilishida Cho‘lponning “kampironasi”dan eshitgan xalq ertagi yotadi.

Yorqinoy – go‘zal, mehribon va fidoyi qahramon. Uning sevgisi va hayoti, jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklar bilan to‘qnash keladi. U sevgan insoni uchun kurashadi. “Yorqinoy” dramasi strukturasi dramatisizm asosiy o‘rin tutadi. Har bir sahnada kuchli hissiy yuk bor, qahramonlarning harakati va dialoglari o‘quvchida chuqur his-tuyg‘ular uyg‘otadi.

Asardagi qahramonlarning har birining o‘ziga xosligi yozuvchi mahorati tufayli yuzaga chiqqanligini his etishimiz kerak. Birgina O‘lmas obrazini olib ko‘raylik. Asar davomida uni xilma-xil ko‘rinishlarda uchratamiz. U vaziyat va sharoitga qarab o‘zini turlicha tutadi. Bularning barchasi uning nutqida o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Asarni tahlil qilish jarayonida O‘lmasning botirligi o‘z farzandi uchun fidokor ota ekanligi, maqsadiga erishish yo‘lida hech narsadan (hatto odam o‘ldirishdan ham) qaytmasligi, ayni paytda nodon va jaholotga botganligi ham ko‘rinib qoladi. O‘lmas botirning qarorgohida bog‘bon bo‘lgan Po‘lat bilan qizi Yorqinoy o‘rtasida muhabbat tuyg‘ulari sezila boshlaydi. Po‘lat oddiy xizmatkor, Yorqinoy esa badavlat xonadonning farzandi bo‘lganligi, otasi uni xonzodalarga loyiq deb bilgani uchun bog‘bon yigitning o‘z ezgu niyatining amalga oshishiga ko‘zi yetmaydi. Shu tariqa bu xonadondan ketishga ahd qiladi. Shu payt Po‘latni Yorqinoy bilan birga uchratib qolgan Botir uni benomuslikda, ko‘rnamaklikda ayblaydi. Yorqinoy ham or-nomusni unutib, faqir bir xizmatkor bilan uchrashgani uchun o‘ldirishga tayyor ekanligini aytadi. Yorqinoy esa haq yo‘lida o‘limga ham tayyor qizlardan edi.

O‘z manfaatidan kelib chiqqan haq tushunchasi O‘lmas botirni o‘zining yolg‘iz qizini jazolash to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishga ham undamaydi. Ayni shu paytning o‘zida o‘zgalar uchun haq tushunchasi uni Po‘latni qatl etish uchun izn beraveradi. Shu fikr bilan yashagan Botirning halol inson emas, aksincha zulmkor inson ekanligini ko‘rish mumkin bo‘ladi. U bilan ilk bor to‘qnashgan va yuzma-yuz olishishga majbur bo‘lgan Po‘lat o‘zining va otasining kim ekanligini undan so‘rab bilmoqchi, o‘z ajdodlarining taqdiri to‘g‘risida xabar topmoqchi bo‘ladi. Lekin kutilmaganda bu narsa O‘lmas Botirning eng dahshatli siri ekanligi oshkor bo‘lib qoladi.

Yorqinoy Cho‘lponning boshqa asarlaridagi xotin-qizlar obrazlariga nisbatan jasur va kurashuvchan. U o‘z hayotini boshqalar qo‘liga topshirib qo‘ymaydi. O‘zi uchun, sevgilisi uchun hayot sinovlarida sinmagan mard qiz. Cho‘lpon Yorqinoy obrazini o‘z erki uchun kurashadigan ayol sifatida gavdalantirgan.

Yorqinoy Po‘latga ruhan yaqin bo‘lgani, uni nafaqat or-nomusli, irodali yigit, balki haqiqat yo‘lida kurashga tayyor bo‘lgani uchun ham sevadi. Yorqinoy otasining qonli ishlaridan xabardor bo‘lgach, undan voz kechib, Po‘lat olib borgan kurashga qo‘shilishi orqali uning vujudida To‘marisning qoni urib turganiga guvoh bo‘lamiz.

Po‘lat o‘zining yaqinlari – oddiy qashshoq aholi bilan birga, hamda yoshlikdan jangovarlik an‘analari asosida tarbiya ko‘rgan Yorqinoy yordamida xon qo‘shinlarini

mag‘lub etib, hukumat tepasiga keladi. Biroq Yorqinoyga taxt emas, uni ardoqlovchi, butun hayotini unga bag‘ishlovchi Po‘lat kerak edi. U Po‘latning saltanat ishlaridan ortgan daqiqalarinigina huzurida, yana horigan holda o‘tkazayotganini ko‘rib g‘azablanadi, toju taxtdan ham nafratlanib ketadi. Shunda Po‘lat Yorqinoyga bunday javob beradi: “Toju taxt... toju taxtning orqasida yurt bor, el bor, xalq bor... uni o‘ylash kerak... uning g‘amini yeyish kerak...” Bu so‘zlar asarda tasvirlangan voqealardan kelib chiquvchi mantiqiy xulosadir.

Asarda Kal obrazining ham o‘z o‘rni bor. Kal obrazi asarni kulgi va yumor bilan boyitgan. Kalning o‘ziga xos fe‘l-atvori, tili yorqin va jonli chiqqanini ko‘rish mumkin. Cho‘lpon Kalning asarga kulgu bergan tilini yaratishda xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan sa‘j san‘atidan foydalangan. “Suvday shovillab, o‘tday lovillab, chumchuqday chirillab, shamolday pirillab...”, “Oyim poshsha, siz mening xudo bergan qizimsiz, ko‘ksimda kulgan yulduzimsiz, qo‘limga qo‘ngan qunduzimsiz, yayrab yurgan qo‘zimsiz, uchib o‘ynagan qo‘ng‘izimsiz, qarab turgan ko‘zimsiz. qizorib turgan yuzimsiz, to ‘kilib turgan so‘zimsiz...” kabilar.

Cho‘lpon ushbu asarida xalq – qahramonlik dostonlari an‘analaridan istifoda etgan holda zamonaviy muhim g‘oya bilan sug‘orilgan asarni yaratgan. “Yorqinoy” dramasida sujeti qiziqarli voqealar rivoji bilan to‘la. Dramadagi hamma voqea va epizodlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Cho‘lponning dramatik asarlari o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallaydi. U o‘z asarlarida realizm, naturalizm, inson ruhiyati va ichki ziddiyatlarni chuqur tahlil qiladi. Cho‘lponning dramatik ijodi o‘z davrining ijtimoiy va madaniy muammolarini ochib beradi, o‘quvchilarni chuqur o‘ylashga majbur qiladi. Uning asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan va o‘zbek adabiyotining qimmatli merosi sifatida qabul qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cho‘lpon. (1991). Yorqinoy. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
2. Karimov N. (2003). Cho‘lpon (Ma‘rifiy roman). T.: Sharq.
3. Mamajonov S. (1997). Bizning Cho‘lpon. - T.: Yozuvchi.
4. Quronov D. (1997). Cho‘lponning hayoti va ijodiy merosi. – T.: O‘qituvchi.
5. Rizaev SH. (1997). Jadid dramasi. - T.: Sharq.